

“YOSHLARDA KORRUPSIYAGA NISBATAN TOQATSIZ MUNOSOBATNI SHAKLLANTIRISH” maqsadida hamda **“9 DEKABR - XALQARO KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH KUNI”**ga bag‘ishlangan **“AKSILKORRUSIYA OYLIGI”** doirasida Termiz davlat universiteti professor-o‘qituvchilari va talaba yoshlari orasida **“KORRUPSIYA RIVOJLANISHIMIZGA TO‘SIQ”** mavzusida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari vakillari ishtirokida davra suhbatini bo‘lib o‘tdi

Joriy yilning 4-dekabr kuni Termiz davlat universiteti “Yuridik” fakulteti faollar zalida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-noyabrdagi PF-200-son Farmoni bilan tasdiqlangan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha 2023-2024-yillarga mo‘ljallangan davlat dasturining 25-bandida belgilangan **“YOSHLARDA KORRUPSIYAGA NISBATAN TOQATSIZ MUNOSOBATNI SHAKLLANTIRISH”** vazifasiga ko‘ra korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari vakillari bilan oliygohning “Tarix” va “Tabiiy fanlar” fakultetlari professor-o‘qituvchilari va talaba yoshlari ishtirokida davra suhbatini tadbiri amalga oshirildi.





Davra suhbatida Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha 1-prorektor – O.Shofiyev, Surxondaryo viloyati kasaba uyushmalari tashkilotlari birlashmasi raisi, Surxondaryo viloyati Korrupsiyaga qarshi kurashish hududiy Kengashi raisi o'rinbosari - A.Axmedov, Surxondaryo viloyati Adliya boshqarmasi Termiz shahar bo'limi mas'ul xodimi – S.Sharipov, Surxondaryo viloyati Sudi jinoyat ishlari bo'yicha sudlov hay'ati sudyasi – I.Abrayev, Halq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashi kotibiyati bosh mutaxassisi – J.Jo'rayev, universitet korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplayens nazorat” tizimini boshqarish bo'limi boshlig'i – U.Devonov hamda fakultet dekanlari, ularning Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosarlari, 12 nafar professor-o'qituvchilar va tyutorlar hamda 100 nafar talaba yoshlar qatnashishdi.



Tadbirda soʻzga chiqqanlar, Korrupsiya dunyo miqyosida hal etilishi lozim boʻlgan global muammolardan biri ekanligi, ushbu illat har qanday davlat va jamiyatning siyosiy-iqtisodiy rivojlanishiga jiddiy putur yetkazib, inson huquq va erkinliklarining poymol boʻlishiga olib kelishi. Shu bois unga qarshi kurash xalqaro ahamiyat kasb etib, jahon siyosatining muhim masalalari qatoridan joy olganligini aytib oʻtishdi.

Tadbir yakunida ishtirokchilarga korrupsiyaga qarshi kurashish boʻyicha muvaffaqiyatli natijalarga erishgan xorijiy davlat tajribasi aks ettirilgan **“Korrupsiyani yenggan mamlakat – Singapur moʻjizasi”**, **“Qoloqlikdan gurkirab ketgan Singapur”**. **“Singapur poraxoʻrlikni qanday yengdi”**. **“Li Kuan YU korrupsiyani yoʻqotish stili bilan tanishing”** sarlavhali videoroliklar namoyish etildi.

Termiz davlat universitetida “9-DEKABR-XALQARO KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH KUNI”ga bag‘ishlangan “AKSILKORRUPSIYA OYLIIGI DORASIDA “OCHIQ ESHIKLAR KUNI” tadbiri amalga oshirildi.

Joriy yilning 10 dekabr kuni universitetda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 5-noyabrdagi 03-23-273-sonli chora-tadbirlar rejasining 5-bandiga, Korruptsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi majlisining 16-son bayonnomasi 2-ilova 5-bandiga hamda “9-dekabr-Xalqaro korruptsiyaga qarshi kurashish kuni”ga bag‘ishlangan “Aksilkorruptsiya oyligi dorasida o‘tkazilayotgan tadbirlar rejasi”ga muvofiq oliygoh faoliyati ochiqligini ta’minlash, korruptsiyaviy xavf-xatarlarning oldini olish va bartaraf etish, sohada zamonaviy korruptsiyaga qarshi kurashish tizimlarini joriy etish kabi masalalarga bag‘ishlangan “Ochiq eshiklar kuni” tadbiri amalga oshirildi. Tadbirda Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazi Surxondaryo viloyati bo‘limi xodimlari, Yoshlar ittifoqi Surxondaryo viloyati kengashi a‘zolari, oliygohning professor-o‘qituvchilari, talaba yoshlari va yoshlar ittifoqi kordinatorlari hamda akademik litseyning pedagoglari va bitiruvchi o‘quvchilari ishtirok etishdi.



Ishtirokchilarga oliygohning faoliyati xususida qisqacha ma'ruza qilindi va ular "Yuridik", "Tarix", "Ijtimoiy fanlar", "Xorijiy filologiya" va "O'zbek filologiya" fakultetlariga hamda "Sport faoliyati va boshqaruvi" fakulteti kurash sport zaliga tashrif buyurishdi.

Shundan so'ng universitetning yoshlar markazida korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish hamda oliygoh faoliyatining ochiqligini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar taqdimoti o'tkazildi. Tadbirda "9-dekabr-Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni"ga bag'ishlab o'tkazilgan tadbirlar asosida tayyorlangan ijtimoiy slaydlar va roliklardan foydalanildi.

Tadbir jarayonida, ishtirokchilar o'zlarini qiziqtirgan mavzular hamda o'qitish va o'qish jarayonlari xususida savollar berishib, ularga to'liq javoblar olishdi.

O'tkazilgan tadbir universitetning TerDU rasmiy (<https://t.me/terdu340> /23159) va akademik litseyning (https://t.me/TerDU_Akademik_litsey_kanali) telegramm kanallarida yoritildi.



Termiz davlat universiteti mas'ul xodimlari ishtirokida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-iyundagi "O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING "MANFAATLAR TO'QNASHUVI TO'G'RISIDA"gi Qonuni ijrosini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ-210-son qarori talablari ijrosini ta'minlash bo'yicha seminar tadbiri o'tkazildi

Joriy yilning 11-dekabr kuni Termiz davlat universiteti rektorati faollar zalida oliygoh mas'ul xodimlari ishtirokida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-iyundagi "O'zbekiston Respublikasining "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonuni ijrosini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-210-son qarori talablari ijrosini ta'minlash bo'yicha seminar o'tkazildi.

Seminarida Moliya iqtisod ishlari bo'yicha prorektor v.v.b. N.Xursandov, korrupsiyaga qarshi kurashish "Komplayens nazorat" tizimini boshqarish bo'limi boshlig'i U.Devonov, yuriskonsult M.Po'latov, Texnik foydalanish va xo'jalik bo'limi boshlig'i R.Sultonov, moddiy bazani shakllantirish va xo'jalik shartnomalar bilan ishlash bo'limi boshlig'i B.Xolliyev, bosh buxgalter A.Qulmanov, reja moliya bo'limi xodimlari hamda ichki audit va moliyaviy nazorat bo'limi boshlig'i D.Rashidova va 34 nafar boshqa mas'ul xodimlar qatnashishdi.



Tadbirda soʻzga chiqqanlar Hisob palatasi tomonidan Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-iyundagi “Oʻzbekiston Respublikasining “Manfaatlar toʻqnashuvi toʻgʻrisida”gi Qonuni ijrosini samarali tashkil etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ-210-son qarori ijrosi hamda nazorat ishlarining yillik dasturiga asosan davlat xaridlari subyektlari oʻrtasida 2022-2023 yillar va 2024-yil 6 oyida manfaatlar toʻqnashuviga yoʻl qoʻyish holatlari oʻrganilganligi, oʻrganish Hisob palatasining Masofaviy nazorat markazi tomonidan tayyorlangan risk tahlillari asosida amalga oshirilganligi hamda oʻrganishda aniqlangan kamchiliklarga kelgusida yoʻl qoʻymaslik va bu kabi holatlarni oldini olish boʻyicha chora-tadbirlar ishlab chiqish boʻyicha maʼruzalar qilishdi.

Shuningdek, ishtirokchilarga Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 8-oktabrdagi “Oʻzbekiston Respublikasi Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini yanada samarali tashkil etish toʻgʻrisida”gi 369-son buyrugʻi 3- va 6-ilovalari bilan tasdiqlangan “Oʻzbekiston Respublikasi Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimida manfaatlar toʻqnashuvini boshqarish boʻyicha Nizom” hamda “Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimida kontragentlarni tekshirishga oid Yoʻriqnomalar” mohiyati va ahamiyati tushuntirildi.



**Universitetning “Yuridik” va “Ijtimoiy fanlar” fakultetlari tyutorlari va talaba yoshlarining
“Korrupsiyaga qarshi kurashish” yo‘nalishida huquqiy bilim va saviyalarini oshirish
borasida davra suhbatlari bo‘lib o‘tdi.**

20-dekabr kuni “9-dekabr Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni” munosabati bilan “Yuridik” va “Ijtimoiy fanlar” fakultetlari tyutorlari va talaba yoshlarida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, ularning korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilim va ko‘nikmalarini oshirish maqsadida davra suhbatlari tadbiri amalga oshirildi.



Tadbirda ishtirokchilarga O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi (O‘RQ-419-son, 2017-yil 3-yanvar) va “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonunlari (O‘RQ-931-son, 2024-yil 5-iyun), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-210-son va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi “Aholi va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini uzluksiz oshirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-228-son qarorlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi “Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslarni rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 829-son qarori mazmun-mohiyati va ahamiyati tushuntirildi.

